



Bayjonov Furqat Baxramovich
«Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot instituti
mustaqil tadqiqotchisi

OILADA GENDER MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilada gender madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik jihatlari hamda gender madaniyatning zamonaviy shakllarini vujudga keltiruvchi ijtimoiy-pedagogik omillar tahlil qilingan bo'lib, unda o'smir yoshdagi o'g'il va qiz bolalarning har birida jamiyat hayoti uchun zarur bo'lgan jinsga xos rollar, munosabatlar va muomala madaniyatini oila mahalla va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda shakllantirish zarurligi ta'kidlangan.

Tayanch so'zlar: gender, gender madaniyat, ijtimoiy muammo, gender tenglik, gender tengsizlik, gender yondashuv, oila, maktab.

Аннотация. В статье анализируются социально-педагогические аспекты развития гендерной культуры в семье, а также социально-педагогические факторы, создающие современные формы гендерной культуры. Подчеркивается, что необходимо формировать культуру конкретных ролей, взаимоотношений и поведение в сотрудничестве с семьей, соседями и учебными заведениями.

Ключевые слова: гендер, гендерная культура, социальная проблема, гендерное равенство, гендерное неравенство, гендерный подход, семья, школа.

Annotation. This article analyzes the socio-pedagogical aspects of the development of gender culture in the family, as well as the socio-pedagogical factors that create modern forms of gender culture. It is emphasized that it is necessary to form the culture of specific roles, relationships and behavior in cooperation with the family, neighborhood and educational institutions.

Keywords: gender, gender culture, social problem, gender equality, gender inequality, gender approach, family, school.

Kirish. Jahonda globallashuv jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgan hamda ma'naviy to'qnashuvlar transformatsiyasi sodir bo'layotgan bir paytda oilalar va ta'lim muassasalarining o'qitish, tarbiyalash funksiyasini kutilgan natijaga amaliy yo'naltirish muhimdir. Oilada va ta'lim muassasalarida gender madaniyatini shakllantirish, uning ustuvor yo'nalishlarini ommalashtirishga oid islohotlar, ilmiy loyihalar, innovatsion hamda xalqaro tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, ilm-fan va qator ilmiy-tadqiqot institutlari, Birlashgan

Millatlar Tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tashabbusi bilan dunyo aholisining epidemiologik vaziyati, sog'lom turmush tarzining ilmiy metodologik negizlarini aniqlashga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

Dunyoda yoshlarni tarbiyalash, ularning ijtimoiylashuvining barqaror rivojlanish muhitini ta'minlash bo'yicha xalqaro miqyosda innovatsion ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Oila va ta'lim muassasalarining asosiy ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda o'quvchi o'g'il-qizlar ongida gender tenglik tushunchasini shakllantirish, xususan, o'g'il

va qiz bolalar gender madaniyatini yuksaltirishning ommabop, amaliy jihatdan qo'llashga doir qulay texnologiyalarni amaliyotga joriy etish taqozo etiladi. Bu esa jamiyat munosabatlarida gender nazariyasi nuqtayi nazaridan qarashning hozirgi kundagi ko'rinishini ochib bermasdan, ulg'ayib kelayotgan o'quvchi yigit va qizlarga kasb tanlash hamda oila qurish kabi mas'uliyatli vaziyatlarda amaliy ko'mak bermasdan amalga oshmaydi. Oila va ijtimoiy institutlarning o'zaro faoliyati bog'liqligida o'quvchilarning gender madaniyatini rivojlantirish maqsadli hamkorlik bilan bog'liq bo'lib, bu yo'nalishda media muhitni yaratishni, o'qituvchilarning individual innovatsion faoliyatini tarkib toptirishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda oila institutini mustahkamlash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilgan. "O'zbekiston Respublikasida erkaklar va ayollarning teng huquqlari hamda imkoniyatlarini ta'minlash bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash va maqsadli islohotlarni amalga oshirish"¹ kabi ustuvor vazifalar doirasida gender diskriminatsiyasini keng ommaga tarqatishni istisno qiladigan kitob va darsliklarni yaratish, davlat dasturlarida tenglik muammolariga mo'ljallangan xorijiy tajribalar, kurslar, o'quv-uslubiy ta'minotdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'g'il va qizlarda gender madaniyati sifatlarini tarkib toptirish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy muhitni milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish omillari, pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini, didaktik talablarini aniqlashtirishni taqozo etadi.

Asosiy qism. Mamlakatimizda oilada gender nazariyasi qoidalarini, tamoyillarini joriy etish, o'g'il va qiz bolalar gender madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari hamda shaxs umummadaniyatini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar M.L.Abdujabborova, M.Abdullayeva, Sh.A.Akramova, R.X.Djurayev, O.P.Jamoldinova, Z.K.Ismoilova, N.D.Qosimova, M.Quronov, U.I.Mahkamov, R.M.Medetova, N.Sh.Mullaboyeva, O.M.Musurmonova, E.M.Muxtorov, N.Ortiqov, Z.T.Saliyeva, M.M.Tilavova, N.I.Xalilova,

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 9 январдаги "Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида"ги ПФ-5618-сон Фармони / Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 17.03.2021 й., 06/21/6188/0216-сон.

Sh.T.Xalilova, B.X.Xodjayev, X.M.Tojiboyeva va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan B.S.Ageyev, V.V.Dudukalov, I.S.Kon, A.V.Mudrik, L.I.Stolyarchuk va boshqalar gender tarbiyasi muammolarini tadqiq qilgan bo'lsalar, E.N.Kamenskaya, O.A.Konstantinova va R.Sobirovlar ta'limda gender yondashuvining o'ziga xos jihatlarini ochib berishgan. Bundan tashqari, ta'limda gender umumlashtirish masalalari A.V.Smirnova, E.R.Yarskaya-Smirnovaning; maktab dasturlari, darsliklardagi gender stereotiplarning gender tahlili O.A.Konstantinova, T.B.Kotlova, E.R.Yarskaya-Smirnovaning; gender stereotiplarining ta'lim va tarbiyaga ta'siri L.N.Nadolinskayaning; oliy ta'limda gender tarbiya aspektlari L.Bullatova, I.S.Kletsinalarning ilmiy izlanishlarida muayyan darajada tadqiq etilgan².

Xorij olimlaridan J.Piaje, M.Montessori, P.Engelman, I.Xoffman kabilar shaxsning rivojlanishini, shuningdek, o'g'il va qiz bolalarning ijtimoiylashuv masalalarini tadqiq etgan bo'lsa, D.Blau, D.Berto, L.D.Gudkov, M.Kivinen, S.Koen, D.Leyn, P.Monson va boshqalar sotsial transformatsiyalar tizimini o'rganib, o'quv jarayonini tashkil etishining zamonaviy amaliyotlarini tadqiq etishgan³.

Jumladan, mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlashni davom ettirishdagi asosiy tahdidlar va istiqbollar haqida so'z borganda ishtirokchilar statistik ma'lumotlar keltirdilar. Bu ma'lumotlar O'zbekiston hukumatining taraqqiyot maqsadlariga erishishga sodiqligidan darak beradi. Jumladan, 2016-yilgi BMT ma'ruzasida Inson kamoloti indeksi bo'yicha O'zbekiston 185 ta mamlakat orasidan 105-o'rinni egalladi, bu esa mamlakatimiz inson kamoloti yuksak darajada bo'lgan mamlakatlar qatoridan joy olganini anglatadi.

Gender tenglik indeksida O'zbekiston 188 ta mamlakat orasida 57-o'rinni egallab turibdi. Bu ko'rsatkich xotin-

² Дудукалов В.В. Педагогические условия полоролевого воспитания студентов младших курсов вузов. кандидат педагогических наук – Москва, 2002. – С. 156.; Л.И.Столярчук Теория и практика воспитания школьников в процессе полоролевой социализации. доктор педагогических наук. – Москва, 1998. – С. 399.;

³ https://www.researchgate.net/publication/343760383_Naturwissenschaften_integrativ_-_Ergebnisse_eines_Entwicklungsprojekts/stats#fullTextFileContent

qizlar ta'lim olishi va iqtisodiy faolligi yuqori darajada ekanligi bilan izohlanadi. Amalga oshirilayotgan ishlar natijasida O'zbekiston ta'lim va sog'liqni saqlashda gender tenglikka yaqinlashmoqda. Jumladan, me'yoriy-huquqiy hujjatlarda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish choralari belgilab berilgan.

Jumladan, bu borada xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash muammolari, ishlab chiqarish, oilaviy hamda uy ishlarini birlashtirish o'rganib chiqildi. Oila muhitida tarbiyaviy soatlarni olib borish, o'qitish sifati, andozalar va milliy an'analarning gender holati hamda gender kamsitishlarini aniqlashga ta'siri tekshirildi.

Yuqorida nomlari sanalgan olimlarimizning O'zbekistonda gender tadqiqotlariga qo'shgan ulushini yuqori baholar ekanmiz, shuni ta'kidlash kerakki, o'qitishning gender tomonlari, o'zbek an'anaviy va zamonaviy madaniyati voqeligi va jarayonlarini tahlil qilish, ayniqsa, yoshlar orasida gender madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan.

Yurtimizdagi gender masalalarini tahlil qilganimizda milliy gender izlanishlarini yaratish va jamiyatni demokratlashtirish yo'lidagi ijtimoiy-siyosiy muammolarni yechish hozirgi kunning dolzab masalalaridan biri ekanligi namoyon bo'ldi.

O'tmish asrlardan buyon namunali o'qitish xuddi shu o'sish va taraqqiyot sari kuchli sur'at hamda ilg'or harakat ortidan inson salohiyatini o'zining ochiq va yashirin qobiliyatlarini amalga oshirish doirasida yuzaga chiqarishning bosh vazifasiga daxldor edi. Sayyoramizning istalgan joyida maktab ta'limi kishilik dunyosining kasbiy rivojlanishi uchun kerakli bilim va ko'nikmalarni olishga poydevordir. Xususan, o'qitish tizimi va insonning aqliy saviyasi ta'lim berish jarayonida o'g'il va qizlar o'rtasida gender notengligining oldini olishi mumkin.

Tajribalardan ma'lum bo'ladiki, oila va maktablarda gender tengsizligining yashirin ko'rinishlari hozirgacha ustunlik qilib turibdi, bu esa u yoki bu qadar o'g'il bola va qizlar jinslaridan birining afzalliklarini shakllantiradi hamda ularning bilim olish faoliyati sifatiga ta'sir qiladi.

Oilada farzandlarimizga gender tarbiya berish alohida ahamiyatga ega, chunki oiladagi tajovuzkorlikning bir avloddan ikkinchi avlodga

uzluksiz qaytarilishining xarakterli tomoni turli jinsdagi bolalarni tarbiyalashning jinsi bilan ajralib turuvchi yo'nalishidir. O'g'il va qiz bolalar har xil rollarda, qadriyatlarda, obrazlarda va xulq-atvorda turlicha bo'lgani tufayli har ko'rinishda tarbiyalanadilar. O'z hayotida emas, balki eri va bolalari bilan yashashi kerak bo'lgan kelajakdagi onaning va albatta, kelajakdagi ayolning roli qizlarga ishonib topshirilgan.

Zamonaviy pedagogik hamkorlik sharoitida ancha yillardan buyon mavjud gender qoliplarini buzish fursati yetdi. Ijtimoiy mavqe va maqomni aniqlash uchun talabalarning jinsi emas, balki ularning serharakatligi, tezkorligi, iqtidori, ijodkorligi, keng fikrliligi, mulohazakorligi, tavakkalchiligi, alohida va umumga xos xislatlari tamal vazifasini bajarishi lozim.

Oilada gender madaniyatini shakllantirish bo'yicha taklif etilayotgan model samaradorligini sinash maqsadida o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarni berish mumkin:

- oilada gender tengligi tushunchasi gender barobarligi konsepsiyasi – ayollar va erkaklar jamiyatda munosib o'rin egallashi uchun ijtimoiy qimmatbaho buyumlarga, imkoniyatlarga, resurslarga va hayot imkoniyatlariga teng egalik qilish tushunchasiga to'g'ri keldi;

- tadqiqot davomida gender masalasi va gender tengligi borasida ota-onalarning (94 foiz) dunyoqarashi ancha keng ekanligiga qaramay, o'quvchilarning (oddiy guruh) bu boradagi bilimlari sustligi aniqlandi;

- eksperimental guruhdagi o'quvchilarning gender va gender tengligi to'g'risidagi bilimlari va javoblari ancha keng qamrovliligi bilan etalon guruhdan farqlanishi gender tengligi va madaniyati masalalariga bag'ishlangan darsning samarador o'tilganini ko'rsatadi;

- ota-onalar orasida hayotimizda gender tengligi borligiga bo'lgan ishonch darajasining u qadar yuqori emasligi ularning farzandlariga ham ta'sir ko'rsatish ehtimoli yuqori;

- oddiy (etalon) guruh o'quvchilarning gender tengligi borasida yetarli tajriba va bilimga ega emasliklari so'rov natijalarida namoyon bo'ladi;

- eksperimental guruhdagilar orasida barcha o'quvchilar kundalik hayotda gender tengligi masalasida o'z fikrlarini bildirgan bo'lib, ularning bir qismi (35 foiz) hayotimizda ko'p hollarda gender

tengligi borligiga ishonsa, har to'rtinchisi bunga shubha bildirgan;

– tadqiqotda qatnashgan aksariyat respondentlarining jins, yosh, guruh, hududiy parametrlaridan qat'iy nazar, gender tengligi buzilgan paytda ko'pincha ayollarning manfaatleri cheklanadi, deb hisoblashadi;

– so'rovda ishtirok etgan o'quvchilar quyidagilarni ta'kidlashga moyildirlar: gender tengsizligi bugungi kunda hayotimizning aksariyat sohalarida davom etmoqda; milliy va diniy urf-odatlar zamonaviy sharoitlarda o'ziga xos ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy ko'rinishga ega bo'lgan ayollarga jamiyatda bo'ysunuvchi rolni yuklamoqda;

– olingan natijalarga ko'ra, jamiyatimizda ayollarning ishlashi uchun ularning oilasi va ishining

birgalikda uyg'un olib borishi muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish joizki, oilada balog'at yoshidagi o'g'il va qizlarni kelajakdagi turmushga tayyorlab, oilaviy hayotni boshlash davri yaqinlashganda, har ikki jins vakillari mashaqqatlar bilan yuzlashadilar, buning oqibatida genderni anglatuvchi vakolatli pedagoglar soni ortadi. Va nihoyat, umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'quvchisi shaxsiyatining muvaffaqiyatli rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan qoliplarni bartaraf etish va shaxsiy qiziqishlari, ijtimoiy ehtiyojlari asosida uning xulq-atvorining sotsial maqbul modellari shakllantirishni qamragan gender yondashuvidan foydalanish zarurati tug'iladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 9 январдаги “Жамиятда ҳукукий онг ва ҳукукий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-5618-сон Фармони / Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 17.03.2021 й., 06/21/6188/0216-сон.
2. Дудукалов В.В. Педагогические условия полоролевого воспитания студентов младших курсов вузов. кандидат педагогических наук – Москва, 2002. – С. 156.
3. Столярчук Л.И. Теория и практика воспитания школьников в процессе полоролевой социализации. – Москва, 1998. – С. 399.
4. https://www.researchgate.net/publication/343760383_Naturwissenschaften_integrativ_-_Ergebnisse_eines_Entwicklungsprojekts/stats#fullTextFileContent.
5. Bayjonov F.B. Oilada o'spirinlarda gender tengligi masalalari // “Maktab va hayot” ilmiy-metodik jurnali. – Toshkent, 2021. – №3. – Б.17-19 (13.00.00; №4).
6. Bayjonov F.B. Stages of formation of gender culture in youth // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Great Britain, 2021. – №4. pp.1-4. (13.00.00. №3).
7. Bayjonov F.B. Umumta'lim maktablardagi o'spirin o'quvchilarda gender madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari // Xalq ta'limi vazirligi, Xalq ta'limi jurnali. – Toshkent, 2021. – № 6. – Б.6-8. (13.00.00; № 17).
8. Bayjonov F.B. Gender differences in the contemplation of teenagers // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. – USA, 2021. – Volume 06. – Issue 98. pp. 144-146.
9. Bayjonov F.B. Gender madaniyat tushunchasini ijtimoiy hodisa sifatida o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish // “Itimoiy boshqaruv” elektron ilmiy jurnal. – Toshkent, 2022. – №1. – Б. 106-109
10. Bayjonov F.B. Issues of gender equality in Uzbekistan (in adolescents in the family) // Global and regional aspects of sustainable development. International Scientific and Practical Conference. Denmark, 2021. pp. 90-96.
11. Bayjonov F.B. Characteristics of the concept of gender culture as a social event // Modern scientific trends and standards. International Scientific and Practical Conference. Argentina, 2021. pp. 50-54.